O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

# 60211000 – San’atshunoslik bakalavriat ta’lim yo‘nalishining

# MALAKA TALABLARI

Toshkent-2024

O‘zR OTFIV
Buyruq№ 218
2024 yil “25” 06

**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi
Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil "25" 06 dagi 218 – sonli buyrug'i bilan.

**JORIY ETILGAN:**
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA


| T/r | | bet |
|---|---|---|
| **1.** | **Umumiy tavsifi** | 4 |
| 1.1. | Qo'llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. | Malaka talablarining qo'llanilishi | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari | 4 |
| 1.2. | Kasbiy faoliyatlarining tavsifi | 4 |
| 1.2.1. | Kasbiy faoliyatining sohalari | 4 |
| 1.2.2. | Kasbiy faoliyatlarining obektlari | 4 |
| 1.2.3. | Kasbiy faoliyatlarining turlari | 5 |
| 1.2.4. | Kasbiy vazifalari | 5 |
| **2.** | **Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar** | 8 |
| **3.** | **Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar** | 9 |
| **4.** | **Fanlar katalogining tuzilishi** | 10 |
| | **Bibliografik ma'lumotlar** | 18 |
| | **Kelishuv varag'i** | 19 |

**1. Umumiy tavsifi**

*60211000 – San'atshunoslik* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

**1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1. Malaka talablarining qo'llanilishi.**

Malaka talablari 60211000 – San'atshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha san'at va madaniyat yutuqlarini hisobga olgan holda malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasaining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. Kasbiy faoliyatlarining tasnifi.**

**1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.**

teatr-konsert, kino tashkilotlari, davlat organlari, viloyat, shahar, tuman, madaniyat boshqarmalari, madaniyat markazlari, musiqa va san'at kollej, letseylari, musiqa va san'at maktablari, kutubxonalar, jamoat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar, shuningdek, san'at va madaniyat bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. *K*asbiy faoliyatlarining obektlari:**

Davlat va nodavlat organlari, Respublikka madaniyat boshqarmalari, madaniyat markazlarida, musiqa va san'at kolleji, litseylari, musiqa va san'at maktablari, kutubxonalar, jamoat tashkilotlari, ijodiy uyushmalarda, radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar, shuningdek, san'at va madaniyat bilan bog'liq boshqa tashkilotlarda yetakchi mutaxassis. San'at sohasidagi umumiy o'rta va o'rta maxsus, professioanal ta'lim muassalarida ta'lim yo'nalishiga oid fanlar o'qituvchisi.

*60211000 – San'atshunoslik* bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. (*60211000 – San'atshunoslik: musiqashunoslik ixtisosligi bundan mustasno*).

*60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari musiqashunos, musiqiy-nazariy va tarixiy fanlar o'qituvchisi, lektor, tanqidchi, umumiy fortepiano sinfi o'qituvchisi kvalifikatsiyalariga ega bo'lish mumkin.

**1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy- tadqiqot.*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *maktabdan tashqari ta'lim muassasalari hamda musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda pedagogik;*
- *badiiy-ijodiy;*
- *ijodiy-ijrochilik*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

**1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

*60211000 – San'atshunoslik:* ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

Respublika va xorijda chop etilgan san'atshunoslikka oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

respublika va xorijda chop etilgan san'at tarixi va metodologiyasiga oid ilmiy-texnik axborotlarning manbalarini o'rganish;

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish;

ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlab chiqish, tahlil qilish va olingan malumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

san'atshunoslikka oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

San'at va madaniyat muassasalari, san'at o'quv va ilmiy – tadqiqot muassasalari, shuningdek, tegishli muharririyat, tahririyat, nashriyot, televideniye va radio, madaniyat va vazirlik boshqarmalarida ishni tashkil etishi va boshqarishi;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan san'at asarlarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

san'at asarlarini sifatli yaratilishini nazorat qilish;

jamoa ishini tashkil qilish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

ishlab chiqarish jarayoni sifatini boshqarish tizimini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

san'at asarlarini saqlash jarayonlarida atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish, marketing va boshqaruv;

o'zbek xalqining madaniy merosi, uning insoniyat tarixidagi o'rni, taraqqiyot bosqichlarini, zamonaviy rivojlanish istiqbollarini chuqur o'rgangan holda tahliliy materiallar yaratish,

sohaga tegishli meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish va bajarilishini ta'minlash ishlarida ishtirok etish;

ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish.

san'atshunoslikka oid tarixiy meroslarni o'rganish;

san'atshunoslik namunalarini o'rganishda, ilmiy-amaliy anjumanlarda, ko'rgazmalar tashkil qilishda, san'atshunoslik tadqiqotlarini yaratishda ishtirok etish;

respublika va xorijda chop etilgan san'at va madaniyatlar metodologiyasiga oid ilmiy-texnik axborotlarning manbalarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-ijodiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish;

internet tarmog'ida sohaga tegishli eng yangi ilmiy, texnologik yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda qidirish va topish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

**Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari hamda musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda pedagogik:**

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari hamda musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda ixtisoslikka mos ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va yakka (laboratoriya) mashg'ulotlarini o'tkazish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish usullarini ishlab chiqish va o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni shakllantirish va tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning didaktik vositalaridan foydalanishi;

mustaqil ta'lim va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o'qitilayotgan fan bo'yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;

o'quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish;

musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash va ta'lim jarayoniga singdirish;

o'quv jarayonini, o'quv-uslubiy, ma'naviy-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishning ilg'or tajribalarini umumlashtirish va keng yoyish.

**Badiiy-ijodiy faoliyatda:**

san'at asarlarini g'oyaviy – badiiy sifatlarini ajrata olishi;

og'zaki va yozma tahlil qilish bo'yicha san'atshunoslik malakaviy ko'nikmalariga mukammal ega bo'lishi;

teatr, kino, musiqa, tasviriy va amaliy san'atga oid muammoli maqolalar yozishi;

turli janrlarga mansub asarlarga taqrizlar yoza olish qobiliyatlariga ega bo'lish;

san'atshunoslikka oid tarixiy materiallarni saqlash va targ'ib qilishda tahliliy materiallar tayyorlash, sohaga oid treninglar tashkil etish;

san'atshunoslik sohasida xalqaro aloqalar hamda o'zaro foydali hamkorlik rejalari tuzish.

san'at asarlari haqida aniq va tahlili xulosa berish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

**Ijodiy-ijrochilik faoliyatida:**

adabiyot va musiqiy matnlar bilan ishlash;

o'z fikrini mantiqiy va uzviylikda bayon etish;

yuqori saviyada adabiy uslublarga ega bo'lish;
musiqa asarlarini teran tahlil qilish va baholash;
notiqlik mahorat va imkoniyatlaridan keng foydalanish;
ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish;
ko'rsatuv va eshittirishlar uchun materiallar tayyorlash va olib borish;
musiqiy asarlarni yuksak badiiy saviyada taxlil qilish bilan bog'liq ijodiy qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**
San'at asarlari samaradorligini baholash;
axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;
boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.-**

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ilmiy-ijodiy muammolarni va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish. Ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi, soha bo'yicha faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalarini qo'llay bilishi, axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

tegishli bakalavriat yo'nalishlari doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish;

kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi; ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan

asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

san'at asarlarini g'oyaviy-badiiy sifatlarini og'zaki va yozma tahlili bo'yicha san'atshunoslik malakaviy ko'nikmalariga ega bo'lish;

jahon san'atining adabiy – badiiy oqimlari etaplari; kino dramaturgiya va kino san'atlar taraqqiyoti qonunlarini malakali bilishi va o'zining kino tanqidchilik, tarixiy tadqiqot va targ'ibot faoliyatida qo'llay olish;

arxiv va tarixiy materialni, davriy va boshqa materiallarni to'plash va qayta ishlash, tanlangan mavzu yuzasidan kino san'ati arboblari bilan tadqiqiy suhbatlar o'tkazish, umumlashtirish va o'zining kasbiy faoliyatida foydalana bilish;

turli janr, shakl va uslublardagi kino asarlarni tahlil etish, badiiy voqeliklarni umumlashtirish va ularga badiiy estetik baho berish;

san'at arboblari haqida san'atshunos sifatida maqolalar yaratish ko'nikmalariga ega bo'lish;

muallif sifatida san'atlar haqida ijodiy ko'rsatuvlarni tayyorlash;

san'atshunos sifatida o'zbek san'atining kelgusidagi rivojlanishi va takomillashuvini ta'minlash, zamonaviy badiiy jarayon hodisalari, tendensiyalari va qonuniyatlarini tahlil qilish;

san'atlarning g'oyaviy – badiiy va estetik yuksakligini mustahkamlashda ko'maklashish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorgarlik profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

san'at asarlarini g'oyaviy-badiiy sifatlarini og'zaki va yozma tahlil qilish;

tanqidchilik faoliyati: san'atshunos sifatida kino ijodiy ishlab – chiqarish faoliyatini rejalashtirish;

jahon va o'zbek klassik merosini va tanlash;

tomoshabinlar bilan ishlash;

san'at asari ijodkorlari haqida ilmiy-ijodiy ishlar yaratish borasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lish;

kasbga oid muammolar yechimlarni amaliyotga tatbiq etish;

san'atshunoslik sohasida xalqaro aloqalar hamda o'zaro foydali hamkorlik rejalari tuzish;

san'atshunoslik faoliyatiga oid qonun va qonun osti hujjatlari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

media sohasida tahliliy jurnalistik kontentlar tayyorlay olish;

noshirlik va muharrirlik ishlarini olib borish;

teleradio sohasida me'morchilik, tasviriy san'at, dizayn, fashion sohalarida turli ko'rsatuvlar tayyorlay olish;

ijtimoiy tarmqolarda san'at, mediaart bilan bog'liq blog yurita olish;

san'atshunoslik sohasida xalqaro aloqalar hamda o'zaro foydali hamkorlik rejalari tuzish;

san'atshunoslik va OAV faoliyatiga oid qonun va qonun osti hujjatlari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

**3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

**3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Tanishuv amaliyoti;
2. O'quv amaliyoti (folklor amaliyoti);
3. Ishlab chiqarish amaliyoti (pedagogik amaliyot);
4. Bitiruv oldi amaliyoti.

**4. Fanlar kataloginining tuzilishi:**

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Majburiy fanlar** | | | |
| 1.01 | O'zYT 20014 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | FAL 20014 | Falsafa | 120 | 4 | 3 |
| 1.03 | DIN 20012 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 2 |
| 1.04 | O'z RT 20014 | O'zbek (rus) tili | 120 | 4 | 1-2 |
| 1.05 | XT 20014 | Xorijiy til | 120 | 4 | 1-2 |
| 1.06 | AT 20014 | Axborot texnologiyalari | 120 | 4 | 3-4 |
| 1.07 | JST 20012 | Jismoniy tarbiya va sport | 60 | 2 | 1 |
| 1.08 | NS 20012 | Notiqlik san'ati | 60 | 2 | 5 |
| 1.09 | MST20012 | Madaniyatshunoslik | 60 | 2 | 7 |
| 1.10 | DN 20018 | Drama nazariyasi | 240 | 8 | 1-4 |
| 1.11 | MT 20014 | Musiqa tarixi | 60 | 2 | 7 |
| 1.12 | RASA 20016 | Rejissyorlik va aktyorlik san'ati asoslari | 180 | 6 | 5-7 |
| 1.13 | SAT 20014 | Stilistika va adabiy tahrir | 60 | 2 | 2 |
| 1.14 | O'z A 20014 | O'zbek adabiyoti | 120 | 4 | 1-2 |
| 1.15 | JA 20014 | Jahon adabiyoti | 120 | 4 | 3-4 |
| ***60211000 –San'atshunoslik: teatrshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar*** | | | | | |
| 1.16 | TSH 200174 | Teatrshunoslik | 2220 | 74 | 1-7 |
| 1.17 | XTT 20016 | Xorijiy teatr tarixi | 180 | 6 | 1-3 |
| 1.18 | O'zTT 20016 | O'zbek teatr tarixi | 180 | 6 | 4-6 |
| 1.19 | DT 20014 | Dramaturgiya tarixi | 120 | 4 | 4-5 |
| 1.20 | KTT 20016 | Kino va teleradio tarixi | 180 | 6 | 1-3 |
| 1.21 | XRST 20014 | Xoreografiya va raqs san'ati tarixi | 120 | 4 | 6-7 |
| 1.22 | TAST 20014 | Tasviriy va amaliy san'at tarixi | 120 | 4 | 3-4 |
| 1.23 | SYA 20014 | Ssenografiya | 120 | 4 | 6-7 |
| 1.24 | SSK 200110 | Ssenariynavislik | 300 | 10 | 3-6 |
| 1.25 | SJ 20014 | San'at jurnalistikasi | 120 | 4 | 4-5 |
| 1.26 | JA 20014 | Jurnalistika asoslari | 120 | 4 | 6-7 |
| 1.27 | BAT 20018 | Badiiy asar tahlili | 240 | 8 | 2-5 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **360** | 12 | 5-7 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | *Tanlov fanlar* | *360* | *12* | *5-7* |
| *Kvalifikatsiya* | | *San'atshunos, dramaturg* | | | |
| ***60211000 –San'atshunoslik: sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar*** | | | | | |
| 1.16 | DM 200172 | Dramaturg mahorati | 2160 | 72 | 1-7 |
| 1.17 | XTT 20016 | Xorijiy teatr tarixi | 180 | 6 | 1-3 |
| 1.18 | O'zTT 20016 | O'zbek teatr tarixi | 180 | 6 | 4-6 |
| 1.19 | KTT 20016 | Kino va teleradio tarixi | 180 | 6 | 1-3 |
| 1.20 | XRST 20014 | Xoreografiya va raqs san'ati tarixi | 120 | 4 | 6-7 |
| 1.21 | DT 20012 | Dramaturgiya tarixi | 60 | 2 | 7 |
| 1.22 | DA 20014 | Dramaturgiya asoslari | 120 | 4 | 6-7 |
| 1.23 | INSS 20014 | Inssenirovka san'ati | 120 | 4 | 5 |
| 1.24 | TAST 20014 | Tasviriy va amaliy san'at tarixi | 120 | 4 | 3,4 |
| 1.25 | SSK 200110 | Ssenariynavislik | 300 | 10 | 3,4,5,6 |
| 1.26 | BAT 20018 | Badiiy asar tahlili | 240 | 8 | 2,3,4,5 |
| 1.27 | SJ 200114 | San'at jurnalistikasi | 120 | 4 | 4,5 |
| 1.28 | JA 200114 | Jurnalistika asoslari | 120 | 4 | 6,7 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **360** | **12** | **5-7** |
| *Kvalifikatsiya* | | *San'atshunos, dramaturg* | | | |
| ***60211000 –San'atshunoslik: kino san'ati tanqidi va tahlili ta'lim yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar*** | | | | | |
| 1.16 | KK 200174 | Kinoshunoslik | 2220 | 74 | 1-7 |
| 1.17 | KTT 20018 | Kino va teleradio tarixi | 240 | 8 | 1-4 |
| 1.18 | XTT 20014 | Xorijiy teatr tarixi | 120 | 4 | 2-3 |
| 1.19 | O'zTT 20014 | O'zbek teatr tarixi | 120 | 4 | 4-5 |
| 1.20 | TAST 20014 | Tasviriy va amaliy san'at tarixi | 120 | 4 | 3-4 |
| 1.21 | KD 20014 | Kinodramaturgiya tarixi | 120 | 4 | 1-2 |
| 1.22 | XRSA 20014 | Xoreografiya va raqs san'ati tarixi | 120 | 4 | 6-7 |
| 1.23 | SSK 200110 | Ssenariynavislik | 300 | 10 | 3-6 |
| 1.24 | FTY 20016 | Filmning tasviriy yechimi | 180 | 6 | 6-7 |
| 1.25 | BAT 20016 | Badiiy asar tahlili | 180 | 6 | 5-7 |
| 1.26 | KR 20014 | Kinoteleradio rejissurasi | 120 | 4 | 3-4 |
| 1.27 | SJ 20014 | San'at jurnalistikasi | 120 | 4 | 4-5 |
| 1.28 | JA20014 | Jurnalistika asoslari | 120 | 4 | 6-7 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **300** | **10** | **5-7** |
| *Kvalifikatsiya* | | *San'atshunos, kinoshunos* | | | |
| ***60211000 –San'atshunoslik: san'at jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar*** | | | | | |
| 1.16 | SJ 200174 | San'at jurnalistikasi | 2220 | 74 | 1-7 |
| 1.17 | KTT 20018 | Kino va teleradio tarixi | 240 | 8 | 1-4 |
| 1.18 | XTT 20014 | Xorijiy teatr tarixi | 120 | 4 | 2-3 |
| 1.19 | O'zTT 20014 | O'zbek teatr tarixi | 120 | 4 | 4-5 |
| 1.20 | TAST 20014 | Tasviriy va amaliy san'at tarixi | 120 | 4 | 3-4 |
| 1.21 | XRSA 20014 | Xoreografiya va raqs san'ati tarixi | 120 | 4 | 1-2 |
| 1.22 | NS 20014 | Noshirlik san'ati | 120 | 4 | 6-7 |
| 1.23 | SAT 20016 | San'at asarlari tahlili | 180 | 6 | 5-7 |
| 1.24 | MM 20014 | Muxarrirlik san'ati | 120 | 4 | 6-7 |
| 1.25 | TS 20014 | Tarjima san'ati | 120 | 4 | 6-7 |
| 1.26 | FTYE 20014 | Filmning tasviriy yechimi | 120 | 4 | 3-4 |
| 1.27 | SSK 20018 | Ssenariynavislik | 240 | 8 | 3-5 |
| 1.28 | SJ 20018 | Jurnalistika asoslari | 240 | 8 | 4-7 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **300** | **10** | 5-7 |
| *Kvalifikatsiya* | | *San'atshunos, jurnalist* | | | |
| | | **Jami:** | **6060** | **202** | |
| | | Malakaviy amaliyot | 900 | 30 | (2,4,6,8) |
| | | Bitiruv malakaviy ishi | 240 | 8 | 8 |
| | | **Jami:** | **1140** | **38** | |
| | | **HAMMASI** | **7200** | **240** | |

***60211000 – San'atshunoslik: tasviriy va amaliy san'at ta'lim yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar***

| **T.r.** | **Fanning malakaviy kodi** | **O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari** | **Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda** | **Kredit miqdori** | **Semestri** |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Majburiy fanlar** | **5640** | **168** | |
| 1.01 | O'EYat1104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 2 |
| 1.02 | Fals1104 | Falsafa | 120 | 4 | 1 |
| 1.03 | XT1104 | Xorijiy til | 120 | 4 | 1 |
| 1.04 | SSAT1104 | San'at sohasida axborot texnologiyalar | 120 | 4 | 2 |
| 1.05 | O'zT1104 | O'zbek (rus) tili | 120 | 4 | 2 |
| 1.06 | Din1104 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 1 |
| ***60211000-San'atshunoslik: tasviriy va amaliy san'at ta'lim yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar*** | | | | | |
| 1.07 | SanNAs1208 | San'atshunoslikning nazariy asoslari | 240 | 8 | 1-2 |
| 1.08 | TasSAR1104 | Tasviriy san'atda afsona va rivoyatlar | 120 | 4 | 2 |
| 1.09 | QDST1212 | Qadimgi dunyo san'ati tarixi | 360 | 12 | 1-2 |
| 1.10 | TKMS1208 | Teatr, kino va musiqa san'ati | 240 | 8 | 1-2 |
| 1.11 | ShKMS1106 | Sharq kitoboti va miniatyurasi san'ati | 180 | 6 | 3 |
| 1.12 | O'AShG'YST 1216 | O'rta asrlar Sharqiy va G'arbiy Yevropa san'ati tarixi | 480 | 16 | 3-4 |
| 1.13 | ABST1416 | Amaliy bezak san'ati tarixi | 480 | 16 | 3-6 |
| 1.14 | SharqST1212 | Sharq san'ati tarixi | 360 | 12 | 3-4 |
| 1.15 | O'zST1532 | O'zbekiston san'ati tarixi | 960 | 32 | 3-7 |
| 1.16 | XVII-XVIII-AYST1216 | XVII-XVIII asrlar Yevropa san'ati tarixi | 480 | 16 | 5-6 |
| 1.17 | BTTN1208 | Badiiy tanqid tarixi va nazariyasi | 240 | 8 | 5-6 |
| 1.18 | MDH ST1210 | MDH san'ati tarixi | 300 | 10 | 6-7 |
| 1.19 | IIAs1106 | Ilmiy ish asoslari | 180 | 6 | 7 |
| 1.20 | ZSNF1106 | Zamonaviy san'at nazariyasi va falsafasi | 180 | 6 | 7 |
| 1.21 | BAT1104 | Badiiy ashyolar texnologiyasi | 120 | 4 | 1 |
| **2.00** | | ***Tanlov fanlari*** | **480** | **16** | 4,5,7 |
| *Kvalifikatsiya* | | *San'atshunos, tasviriy va amaliy san'at* | | | |
| ***60211000 – San'atshunoslik: san'at jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar*** | | | | | |
| 1.07 | SanAs1104 | San'atshunoslik asoslari | 120 | 4 | 1 |
| 1.08 | JA1208 | Jurnalistika asoslari | 240 | 8 | 1-2 |
| 1.09 | QDST1208 | Qadimgi dunyo san'ati tarixi | 240 | 8 | 1-2 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.10 | TKMSNT121 2 | Teatr, kino va musiqa san'ati nazariyasi va tarixi | 360 | 12 | 1-2 |
| 1.11 | PRMX1104 | Pablik rileyshnz va matbuot xizmatlari | 120 | 4 | 3 |
| 1.12 | ShST1208 | Sharq san'ati tarixi | 240 | 8 | 3-4 |
| 1.13 | O'AShG'YST 1212 | O'rta asrlar Sharqiy va G'arbiy Yevropa san'ati tarixi | 360 | 12 | 3-4 |
| 1.14 | MJvM1106 | Media jurnalistikasi va mediaart | 180 | 6 | 7 |
| 1.15 | TNT1208 | Teleradio nazariyasi va tarixi | 240 | 8 | 3-4 |
| 1.16 | O'zST1424 | O'zbekiston san'ati tarixi | 720 | 24 | 4-7 |
| 1.17 | SS1208 | Ssenariynavislik | 240 | 8 | 3-4 |
| 1.18 | XVII-XVIII-AYST1212 | XVII-XVIII asrlar Yevropa san'ati tarixi | 360 | 12 | 5-6 |
| 1.19 | ABST 1416 | Amaliy bezak san'ati tarixi | 480 | 16 | 3-6 |
| 1.20 | BTTN1208 | Badiiy tanqid tarixi va nazariyasi | 240 | 8 | 5-6 |
| 1.21 | BS1106 | Badiiy suhandonlik | 180 | 6 | 6 |
| 1.22 | OAVQ1104 | OAV va qonunchilik | 120 | 4 | 5 |
| 1.23 | IIAs1106 | Ilmiy ish asoslari | 180 | 6 | 7 |
| 1.24 | ZSNF1108 | Zamonaviy san'at nazariyasi va falsafasi | 240 | 8 | 7 |
| 1.25 | AT1104 | Art turizm | 120 | 4 | 2 |
| **2.00** | | ***Tanlov fanlari*** | **420** | 14 | 3,5,7 |
| *Kvalifikatsiya* | | *San'atshunos, jurnalist* | | | |
| | | **JAMI** | **6120** | **204** | |
| | | **Malakaviy amaliyotlar** | 840 | 28 | (4,6,8) |
| | | **Bitiruv malakaviy ishi** | 240 | 8 | 8 |
| | | **JAMI** | **1080** | **36** | |
| | | **HAMMASI** | **7 200** | **220** | |

| ***60211000 –San'atshunoslik: xoreografiya*** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **T.r.** | **Fanning malakaviy kodi** | **O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari** | **Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda** | **Kredit miqdori** | **Semestri** |
| 1.01 | O'YT1104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | D1204 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 2 |
| 1.03 | O'TRT1104 | O'zbek (rus) tili | 120 | 4 | 3 |
| 1.04 | F1304 | Falsafa | 120 | 4 | 3-4 |
| 1.05 | XT13408 | Xorijiy til | 240 | 8 | 3-4 |
| 1.06 | UPP13408 | Umumiy pedagogika va psixologiya | 240 | 8 | 3-4 |
| 1.07 | TT15608 | Teatr tarixi | 240 | 8 | 5-6 |
| 1.08 | UPP13408 | San'atshunoslikka kirish.San'at nazariyasi. | 360 | 12 | 3-4 |
| 1.09 | JO'XST11401 4 | Jahon va o'zbek xoreografiya san'ati tarixi | 420 | 14 | 1-4 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.10 | MEN.MT11308 | Musiqaning elementar nazariyasi.Musiqa tarixi. | 240 | 8 | 1-3 |
| 1.11 | RDA15608 | Raqs dramaturgiya asoslari | 240 | 8 | 5-6 |
| 1.12 | XI17808 | Xalq ijodiyoti | 240 | 8 | 7-8 |
| 1.13 | SLT15608 | Senografiya va libos tarixi | 240 | 8 | 5-6 |
| 1.14 | TST14508 | Tasviriy san`at tarixi | 240 | 8 | 4-5 |
| 1.15 | SJ158016 | San'at jurnalistikasi | 480 | 16 | 5-8 |
| 1.16 | JO'A1704 | Jahon va o'zbek adabiyoti | 120 | 4 | 7 |
| 1.17 | BTT1504 | Balet tanqidchiligi tarixi | 120 | 4 | 5 |
| 1.18 | MCHO'(R)11408 | Musiqa cholg`ularini o`rganish (rubob) | 240 | 8 | 1-4 |
| 1.19 | XBSM118016 | Xoreografiya bo`yicha san`atshunoslik mutaxassisligi | 480 | 16 | 1-8 |
| 1.20 | NS15608 | Notiqlik san`ati | 240 | 8 | 5-6 |
| 1.21 | KT124012 | Kinoteleradio tarixi | 360 | 12 | 2-4 |
| 1.22 | RA114016 | Raqs alifbosi | 480 | 16 | 1-4 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **840** | **28** | **6-8** |
| | | *Tanlov fanlar* | *840* | *28* | *6-8* |
| *Kvalifikatsiya* | | | *San'atshunos, lektor, tanqidchi* | | |
| | | **Jami:** | **6540** | **218** | |
| | | Malakaviy amaliyot | 480 | 16 | (2,4,6,8) |
| | | Bitiruv malakaviy ishi | 180 | 6 | |
| | | **Jami:** | **660** | **22** | |
| | | **HAMMASI** | **7200** | **240** | |

| ***60211000 – San'atshunoslik: musiqashunoslik*** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Majburiy fanlar** | **6300** | **210** | |
| 1.01 | *O'EYT1104* | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | *O'RT1102* | O'zbek (rus) tili | 60 | 2 | 1 |
| 1.03 | *XT1409* | Xorijiy til | 270 | 9 | 4--7 |
| 1.04 | *DIN1104* | Dinshunoslik | 120 | 4 | 7 |
| 1.05 | *FAL1104* | Falsafa | 120 | 4 | 7 |
| 1.06 | *MPP1105* | Musiqiy pedagogika va psixologiya | 150 | 5 | 4 |
| 1.07 | *KP1105* | Kasbiy pedagogika | 150 | 5 | 5 |
| 1.08 | *MSHA1715* | Musiqashunoslik asoslari | 450 | 15 | 1--8 |
| 1.09 | *SMK1102* | San'atshunoslikka (musiqashunoslikka) kirish | 60 | 2 | 1 |
| 1.10 | *MSHK1104* | Manbashunoslik | 120 | 4 | 8 |
| 1.11 | *MTA1204* | Musiqiy tanqidning ilmiy asoslari | 120 | 4 | 4,5 |
| 1.12 | *JMT1827* | Jahon musiqasi tarixi | 810 | 27 | 1--8 |
| 1.13 | *O'MT1210* | O'zbek musiqasi tarixi | 300 | 10 | 1,2 |
| 1.14 | *O'MN1105* | O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi | 150 | 5 | 3 |
| 1.15 | *AO'M1104* | An'anaviy o'zbek musiqasi | 120 | 4 | 4 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.16 | *SHMT1105* | Sharq xalqlari musiqa tarixi | 150 | 5 | 6 |
| 1.17 | *USI1210* | Uslubiy solfedjio | 300 | 10 | 1,2 |
| 1.18 | *GYA1413* | Garmoniya | 390 | 13 | 1--4 |
| 1.19 | *MAT1412* | Musiqa asarlari tahlili | 360 | 12 | 3--6 |
| 1.20 | *PYA1412* | Polifoniya | 360 | 12 | 5--8 |
| 1.21 | *FNO1606* | Fortepiano | 180 | 6 | 1--6 |
| 1.22 | *MNU1105* | Musiqiy-nazariy fanlarni o'qitish uslubiyoti | 150 | 5 | 7 |
| 1.23 | *MTU1104* | Musiqiy-tarixiy fanlarni o'qitish uslubiyoti | 120 | 4 | 8 |
| 1.24 | *ETA1205* | Etnomusiqashunoslik asoslari | 150 | 5 | 6,7 |
| 1.25 | *NOT1205* | Notalashtirish | 150 | 5 | 1,2 |
| 1.26 | *MSO1204* | Maqom solfedjiosi | 120 | 4 | 5,6 |
| 1.27 | *RTN1102* | Radio va telejurnalistika notiqligi | 60 | 2 | 8 |
| 1.28 | *XSHT1204* | Xorijiy sharq tillari (arab, fors) | 120 | 4 | 2,3 |
| 1.29 | *MNA1204* | Musiqiy-nazariy tizimlar | 120 | 4 | 5,6 |
| 1.30 | *MNA1102* | Monodiyaning nazariy asoslari | 60 | 2 | 8 |
| 1.31 | *TAA1102* | Tasviriy va amaliy san'at, arxitektura | 60 | 2 | 8 |
| 1.32 | *CHG'K1205* | Cholg'ushunoslik (simfonik orkestr;XCHO) | 150 | 5 | 1,2 |
| 1.33 | *CHG'SH1204* | Cholg'ulashtirish (simfonik orkestr; XCHO) | 120 | 4 | 2,3 |
| 1.34 | *PTO'1202* | Partitura o'qish (simfonik orkestr; XCHO) | 60 | 2 | 3,4 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **300** | **10** | 3,5,6,7 |
| *Kvalifikatsiya* | | San'atshunos, o'qituvchi | | | |
| | | **JAMI:** | **6600** | **220** | |
| | **Malaka amaliyot** | | 450 | 15 | 3,4,5,6,8 |
| | **Bitiruv malakaviy ishi** | | 150 | 5 | 8 |
| | | **JAMI:** | **600** | **20** | |
| | **HAMMASI:** | | **7200** | **240** | |

| ***60211000 – San'atshunoslik: musiqashunoslik*** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | **Majburiy fanlar** | | | | |
| 1.01 | *MA1819* | Musiqashunoslik asoslari (San'atshunoslikka kirish) | 570 | 19 | 1,2,3,4,5,6,7,8 |
| 1.02 | *MT1827* | Musiqa tarixi (O'zbek musiqasi tarixi; Jahon musiqasi tarixi; An'anaviy o'zbek musiqasi; O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi; Sharq xalqlari musiqasi tarixi va etno-jaz) | 810 | 27 | 1,2,3,4,5,6,7,8 |
| 1.03 | *MET1818* | Musiqiy estrada tarixi (Jaz musiqasi tarixi; Rok musiqasi tarixi; Pop musiqasi tarixi; O'zbekiston musiqiy estrada san'ati tarixi) | 540 | 18 | 1,2,3,4,5,6,7,8 |
| 1.04 | *MN1839* | Musiqa nazariyasi (Solfedjio; Jaz solfedjiosi; | 1170 | 39 | 1,2,3,4,5,6,7,8 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Garmoniya; Jaz garmoniyasi; Musiqa asarlari tahlili; Polifoniya) | | | |
| 1.05 | *MPP1105* | Musiqiy pedagogika va psixologiya | 150 | 5 | 3 |
| 1.06 | *KP1204* | Kasbiy pedagogika | 120 | 4 | 4,5 |
| 1.07 | *DIN1104* | Dinshunoslik | 120 | 4 | 2 |
| 1.08 | *JTS1102* | Jismoniy tarbiya va sport | 60 | 2 | 1 |
| 1.09 | *FAL1104* | Falsafa | 120 | 4 | 8 |
| 1.10 | *O'EYT1104* | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.11 | *XT1615* | Xorijiy til | 450 | 15 | 3,4,5,6,7,8 |
| 1.12 | *FOR1614* | Fortepiano | 420 | 14 | 1,2,3,4,5,6 |
| 1.13 | *ARA1309* | Aranjirovka asoslari (Cholg'ushunoslik;Cholg'ulashtirish ; Partitura o'qish) | 270 | 9 | 3,4,5, |
| 1.14 | *JRMER1511* | Jaz ritmikasi va musiqiy eshtishni rivojlantirsh | 330 | 11 | 4,5,6,7,8 |
| 1.15 | *EATTQ1510* | Estrada asarlarini tinglash va tahlil qilish | 300 | 10 | 4,5,6,7,8 |
| 1.16 | *NOT1205* | Notalashtirish | 150 | 5 | 1,2 |
| 1.17 | *MNTFO'U1208* | Musiqiy-nazariy tarixiy fanlarni o'qitish uslubiyoti | 240 | 8 | 7,8 |
| 1.18 | *RTN1204* | Radio va telejurnalistika notiqligi | 120 | 4 | 6,7 |
| 1.19 | *MTIA1204* | Musiqiy tanqidning ilmiy asoslari | 120 | 4 | 5,6 |
| ***2.00*** | | ***Tanlov fanlar*** | ***300*** | ***10*** | ***3-7*** |
| *Kvalifikatsiya* | | *San'atshunos, o'qituvchi* | | | |
| | | **Jami:** | **6510** | **217** | |
| | | **Malakaviy amaliyot** | 540 | 18 | 2,3,4,5,6,7,8 |
| | | **Bitiruv malakaviy ishi** | 150 | 5 | 8 |
| | | **Jami:** | **690** | **33** | |
| | | **HAMMASI** | **7200** | **240** | |

| ***60211000 – San'atshunoslik: musiqashunoslik*** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Majburiy fanlar** | 6240 | 208 | |
| 1.01 | *O'YT1104* | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | *DNK1104* | Dinshunoslik | 120 | 4 | 2 |
| 1.03 | *FFA1104* | Falsafa | 120 | 4 | 3 |
| 1.04 | *MPP1204* | Musiqiy pedagogika va psixologiya | 120 | 4 | 3-4 |
| 1.05 | *PTPM1204* | Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat | 120 | 4 | 5-6 |
| 1.06 | *KP1204* | Kasbiy pedagogika | 120 | 4 | 7-8 |
| 1.07 | *MA1822* | Musiqashunoslik asoslari | 660 | 22 | 1-8 |
| 1.08 | *MK1205* | Manbashunoslik | 150 | 5 | 6-7 |
| 1.09 | *MTIA1204* | Musiqiy tanqidning ilmiy asoslari | 120 | 4 | 7-8 |
| 1.10 | *JMT 1408* | Jahon musiqasi tarixi | 240 | 8 | 1-4 |
| 1.11 | *O'MT1409* | O'zbek musiqasi tarixi | 270 | 9 | 1-4 |
| 1.12 | *O'MTN1410* | O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi (maqomlar tahlili) | 300 | 10 | 4-7 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.13 | *AO'MA1102* | An'anaviy o'zbek musiqasi asoslari | 60 | 2 | 5 |
| 1.14 | *SHXMT1204* | Sharq xalqlari musiqasi tarixi | 120 | 4 | 7-8 |
| 1.15 | *O'BI1204* | O'zbek bastakorlik ijodiyoti | 120 | 4 | 5-6 |
| 1.16 | *SO1102* | Solfedjio | 60 | 2 | 1 |
| 1.17 | *MS1204* | Maqom solfedjio | 120 | 4 | 2-3 |
| 1.18 | *GYA1309* | Garmoniya | 270 | 9 | 1-3 |
| 1.19 | *MAT1310* | Musiqa asarlari tahlili | 300 | 10 | 4-6 |
| 1.20 | *PYA1411* | Polifoniya | 330 | 11 | 5-8 |
| 1.21 | *AM1204* | Aruz va musiqa | 120 | 4 | 1-2 |
| 1.22 | *SHPA1204* | Shashmaqom parda (lad) asoslari | 120 | 4 | 5-6 |
| 1.23 | *SHKA1205* | Shashmaqom kompozitsion asoslari | 150 | 5 | 7-8 |
| 1.24 | *MNFO'U1205* | Musiqiy-nazariy fanlarni o'qitish uslubiyoti | 150 | 5 | 3-4 |
| 1.25 | *MTFO'U1204* | Musiqiy-tarixiy fanlarni o'qitish uslubiyoti | 120 | 4 | 3-4 |
| 1.26 | *MM1102* | Musiqashunoslik metodologiyasi | 60 | 2 | 7 |
| 1.27 | *EA1204* | Etnomusiqashunoslik asoslari | 120 | 4 | 7-8 |
| 1.28 | *FNO1205* | Fortepiano | 150 | 5 | 1-2 |
| 1.29 | *CHK1102* | Cholg'ushunoslik | 60 | 2 | 1 |
| 1.30 | *CHSH1102* | Cholg'ulashtirish | 60 | 2 | 2 |
| 1.31 | *PO'1102* | Partitura o'qish | 60 | 2 | 2 |
| 1.32 | *NSH1102* | Notalashtirish | 60 | 2 | 1 |
| 1.33 | *RTN1102* | Radio va telejurnalistika notiqligi | 60 | 2 | 8 |
| 1.34 | *XSHT1615* | Xorijiy sharq tillari (arab, fors, urdu) | 450 | 15 | 1-6 |
| 1.35 | *MNA1204* | Musiqiy-nazariy tizimlar | 120 | 4 | 7-8 |
| 1.36 | *CHSO'1404* | Cholg'u sozlarni o'rganish | 120 | 4 | 1-4 |
| 1.37 | *MTG'P1204* | Maqom turkumidagi g'azallar poetikasi | 120 | 4 | 7-8 |
| 1.38 | *XT1510* | Xorijiy til | 300 | 10 | 3-7 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | 360 | 12 | 3-8 |
| *Kvalifikatsiya* | | *San'atshunos, o'qituvchi* | | | |
| | | **JAMI:** | **6600** | **220** | |
| | **Malakaviy amaliyot** | | **450** | **15** | 2,4,6,8 |
| | **Yakuniy Davlat Attestatsiyasi** | | **150** | **5** | 8 |
| | | **JAMI:** | **600** | **20** | |
| | **HAMMASI:** | | **7200** | **240** | |

**Bibliografik ma'lumotlar**

UDK 002: 651. 1/7 Guruh T 55

OKS 01.040.01

**Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy ta'lim dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, kasb ta'limi, san'at, jurnalist, sahna, ekran, drama, teatr, asar, tanqid, tahlil, axborot, roman, pesa, tragediya, komediya, aktyor, rol, obraz, ijobiy, salbiy, spektakl, adabiyot, repertuar, xarakter, konflikt, kompozitsiya, janr, roman, qissa, hikoya, sahna, ssenografiya, musiqa, folklor, rejissyor, adib, avtor, tanqid, tahlil, targ'ib, adabiyot, montaj, televideniye, radio, kino, monolog, dialog, etyud, voqea, jarayon, tadqiqot, reklama, tarif, tasnif, mumtoz, shoir, yozuvchi, milliy, badiiy, xujjatli, madaniyat, romantizm, konflikt, dramaturg, ekran, mazmun, kinoteleradio, klassitsizm.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari**

## ISHLAB CHIQILGAN:

**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti**

**Rektor** __________ **N.B.Sayfullayev**

2024-yil "_____" __________

M.O'.

## KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

**Direktor** __________ **M.R.Boltaboyev**

2024-yil "_____" __________

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Ta'lim sohasini muvofiqlashtirish bo'limi**

**Bo'lim boshlig'i** __________ **O.R.Salixov**

2024-yil "_____" __________

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Teatr Arboblari uyushmasi**

**Direktor** __________ **Y.Ahmedov**

2024-yil "_____" __________

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi**

**Direktor v.b** __________ **Sh.T.Rizayev**

2024-yil "_____" __________

M.O'.

**Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti**

**Rektor** __________ **O.A.Nazarbekov**

2024-yil "_____" __________

M.O'.

**O'zbekiston davlat konservatoriyasi**

**Rektor** __________ **K.T.Urinbayev**

2024-yil "_____" __________

M.O'.

**Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti**

**Rektor _______________ A.Sh.Mirzoraximov**

2024-yil "_____" __________

M.O'.

**O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**

**Rektor _______________ Sh.M.Toxtasimov**

2024-yil "_____" __________

M.O'.

**Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti**

**Rektor _______________ A.M.Mansurov**

2024-yil "_____" __________

M.O'.